



SA'DIXON MAVLAVIXON O'G'LINING "TANAZZUL" ROMANIDA MAVJUD TARIXIY-BADIIY STEREOTIPLARGA MUNOSABAT

¹Asadullayev Quddusbek Lutfullo o'g'li

Guliston davlat universiteti magistranti

quddusbekasadullayev1998@gmail.com

²Q.Yo'ldoshev

Ilmiy rahbar: p.f.d. prof.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7858571>

ARTICLE INFO

Received: 15th April 2023

Accepted: 23th April 2023

Online: 24th April 2023

KEY WORDS

Xudoyorxon, Mallaxon,
Musulmonqul mingboshi, badiiy
psixologizm, tarixiy obraz,
"O'tgan kunlar", "Kecha va
kunduz", "Tarixi Farg'ona".

ABSTRACT

Ushbu maqolada "Tanazzul" romanigacha mavjud bo'lgan tarixiy obrazlar, tarixiy-badiiy stereotiplarga romanda qanday munosabat bildirilganligi, tarixiy manbalar bilan qanchalik mos kelishi, bir-biridan farqi atroflicha taqqoslab o'rganildi.

KIRISH. Fitrat aytganidek, tarix – bu faqat o'tmish emas, balki zamonaviy tahlilchiga foydali bo'lishi uchun ma'lum bir nuqtai nazardan chizilgan o'tmish xaritasidir. Ushbu "xarita"ni o'rganishda faqatgina tarixiy manbalar emas, tarixiy-badiiy adabiyotlarning ham o'rni beqiyos. Moziy olamining sir-sinoatiga shunchaki qiziqish bilan kifoyalanish ham samara bermaydi. Shunday ekan, ajdodlar tarixini bir avlod sifatida sinchiklab o'rganmog'imiz darkor. Buning isboti o'laroq, so'nggi yillarda xonliklar, qo'rboshilar, jadidlarga bag'ishlab bir qancha tarixiy mavzularda asarlar yaratildi. Xususan, Nabijon Boqiyning "Qatlnoma", Javlon Jovliyevning "Qo'rqma", Baxtiyor Abdug'afurning "Madaminbek: Qonli gullar vodiysi", "Sulton Jaloliddin Manguberdi", "Uzbechka", Luqmon Bo'rixonning "Imom Moturudiy", Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" va boshqa bir qator asarlarini aytishimiz mumkin. Shular qatorida Sa'dixon Mavlavixon o'g'lining 7 kitobdan iborat Qo'qon xonligining so'nggi xoni Xudoyorxon davriga oid "Tanazzul" roman-geptalogiyasi ham munosib o'rin egallaydi. Adib ijodiy laboratoriyasida o'z asariga oid barcha manbalarni o'rganadi va uni badiiylashtiradi. Undagi qahramonlarni tarixda yoki boshqa badiiy adabiyotlarda qanday bo'lgan bo'lsa, o'z asariga xuddi shunday olib kirmaydi. O'z nuqtai nazaridan yondashadi. Kitobxon asarni o'qir ekan, o'zi uchun avvaldan tanish bo'lgan Xudoyorxon, Musulmonqul, Mallaxon, Yusufbek hoji va boshqa bir qancha obrazlarning boshqa bir qiyofalarini kashf etadi. "Tarixiy asar yaratish yozuvchidan alohida mas'uliyat talab qiladi. Negaki, ijodkor oldida qanday sodir bo'lganini ko'pchilik biladigan voqea-hodisalar va ularni yuzaga keltirgan shaxslarni haqqoniy va jonli aks ettirish vazifasi turadi. Tarixiy asar yozadigan adib yo tarixdagi voqealar yetovida qolib, o'sha davrdagi odamlarni tirikday ko'rsatmaslik yoki tarixdagi shaxslarga jon ato qilishga andarmon bo'lib, tarix haqiqatidan chekinishday ikki xatardan biriga duch kelishi mumkin"[1.3]. Bu jihatiga yozuvchi jiddiy e'tibor qaratmog'i kerak.



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA. “Tanazzul” romani Qo‘qon xonligining so‘nggi xoni Xudoyorxon va uning hukmdorlik davri, xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy, siyosiy hayoti, harbiy salohiyati hamda O‘rta Osiyo xonliklarining fojiaiy hayoti haqida hikoya qiladi. Xudoyorxon, Musulmonqul mingboshi obrazlarini Is‘hoqxon Ibratning “Tarixi Farg‘ona”, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” kabi va boshqa asarlarda uchratishimiz mumkin. Bu ikki obraz haqida ham kitobxonlar o‘zlarining o‘z xulosalari va tasavvurlariga ega. Tarixiy adabiyotlarda Musulmonqul mingboshi o‘ta ayyor, ishni ko‘zini biladigan, dovyurak va qo‘rqmas, o‘z maqsadi yo‘lida hech narsadan qaytmaydigan shaxs sifatida tasvirlansa, Xudoyorxon 12 yoshligida mingboshi yordamida taxtga chiqib, uning qo‘g‘irchog‘iga aylangan, uning chizgan chizig‘idan chiqmaydigan qo‘rqoq, davlat ishida qat‘iyatsiz, keyinchalik aysh-ishratga berilib, davlat ishini unutib, oxir oqibat xonlikning inqirozga yuz tutishiga sababchi bo‘lgan xon sifatida tasvirlanadi. “Tanazzul” geptalogiyasida esa bu tarixiy-badiiy steriotiplarga munosabat o‘zgacha, ya‘ni bu tarixiy qahramonlarga bundan oldingi asarlarda bir tarafdin ko‘zgu tutilgan bo‘lsa, “Tanazzul” romanida turli tarafdin nazar tashlanadi. Biz ayyor va dovyurak deb bilgan mingboshining ham o‘ylamasdan xom tadbir qilib qo‘ygani, uning qo‘rquvi, xatolari aks etgan sahnalarini ko‘rishimiz mumkin. Xudoyorxon haqida ham xuddi shunday deyish mumkin, ya‘ni yosh bo‘lishiga qaramay o‘ziga yarasha mardligi, dunyoqarashi, davlatparvarligi kabi xarakterlari ochiqqlangan sahnalarga guvoh bo‘lamiz. Qisqacha qilib aytganda, yozuvchi qahramonlarning ichki dunyosini badiiy psixologizmi orqali yanada yorqinroq ochib beradi. Chunki “Inson obrazini to‘laonli yaratishning muhim sharti va, ayni paytda, samarali vositasi badiiy psixologizm sanaladi”[2.70]

“Tanazzul” romanida Musulmonqul mingboshi ham eng asosiy qahramonlardan biri. Butun bir qipchoq qabilalarining rahnamosi. Xudoyorxonning taxtga chiqishiga ham aynan u sababchi. Bu obraz kitobxonga “O‘tkan kunlar” asari orqali juda yaxshi tanish. A.Qodiriy uni: *“Xonning so‘l tomonidag‘i oltin hallik kursi kishidan bo‘sh, o‘ngdagi – ichki saroyga kiradigan eshikcha yonidag‘i kursi ustida O‘ratepa chakmani ustidan qayish kamar bog‘lab, soddag‘ina qilich taqing‘an, boshig‘a oq barra popoq kiyib, basharasidagi burni yuzi bilan bir qatorda deyarlik tekis yaratilg‘an, o‘rtacha soqol, qisiq ko‘z, bug‘doy rang, o‘rta yoshliq bir qirg‘iz – Musulmonqul o‘lturar...”*[5.133], deya tasvirlaydi. “Tanazzul” romanida esa Musulmonqul mingboshi *“...o‘rta bo‘ydan balandroq, bug‘doyrang, qisiq ko‘zlarining orasi tekis, siyrak cho‘qqi saqol, tishlarining orasi ochiq, yoshi o‘tinqirab qolganiga qaramay mushakdor, baquvvat qishin yozin boshida oq barra qalpoq, qora chakmanining ustidan qayish, kamar bog‘lab, sopi toshlar bilan bezatilgan qilich taqib olgan. Bir vaqtlar ko‘pkarida otdan yiqilib, chap oyog‘i mayib bo‘lgan, shundan oqsoqlanib yuradi”* [6.12] deya tasvirlanadi. E‘tibor beradigan bo‘lsak, ikkala yozuvchining asarida ham Musulmonqul obrazining portreti deyarli bir xil. Ammo ularning ichki olamini ochishda yozuvchilarning yondashuvi farqlidir. “O‘tkan kunlar”da mingboshi faqat qoralanib, uning salbiy jihati ko‘rsatiladi. *“Musulmonqulni kim xolis odam, deb o‘ylaydir? – Uning yurt uchun qon to‘kishdan boshqa nimaga foydasi tegdi? Musulmonqul o‘z g‘arazi yo‘lida orada yo‘q nizolarni qo‘zg‘ab, kuyavi Sheralixonni o‘ldirdi, gunohsiz Murodxonni shahid etdi, qo‘y kabi yovvosh Toshkand hokimi Salimsoqbekni o‘ldirib, o‘rniga Azizbekdek zolimni belguladi”*[5.18], yoki *“Musulmonquldek makkor tulkinining o‘ylag‘anlarini qushbegining to‘g‘ri*



so'zlari ost-ust qilib, uning O'tabbyoy to'g'risidagi sui zanlari bir muncha ozayib tushdi"[5.143] kabi jummlar fikrimizni tasdiqlaydi.

NATIJA. Ibratning "Farg'ona tarixi" asarida Musulmonqul dor tagiga olib kelingach, undan zulm ko'rganlar unga qarata: *"Hoy cho'loq, qalaysan, falonni – bejarimani o'ldirding, Sarimsoqbek nima qildi, emdi qalaysan?"*, – deganida, mingboshi ularga qarata: *«Alhamdulillah, holo ham sizlardan yuqoridaman!"*[3.18], – deb javob beradi. Tarixiy manbalarda ham, boshqa badiiy asarlarda ham Musulmonqul mingboshi o'ta dovyurak, jasur, shavqatsiz kishi sifatida tasvirlanadi. Yuqoridagi ma'lumot ham buni tasdiqlaydi. Biroq shuni unutmaslik kerakki, insonda jur'at bilan birgalikda qo'rquv ham bo'ladi. Yozuvchi Sa'dixon Mavlavixon "Tanazzul" romanida mingboshining xon oldida sergak tortishi, hamma qatori oddiy insonlar kabi adashishi, xato qilishi, qo'rqishi mumkinligini ochiq tasvirlaydi va mingboshi obrazini kitobxonga yanada yaqinroq tanishtiradi. Romanda Musulmonqul obrazi o'ta zolim sifatida gavdalanadi. "Tanazzul" romanida esa salbiy jihati bilan birgalikda ijobiy tomonlari ham ko'rsatiladi. Asarda Musulmonqul dorga osilgach, osilib turgan murdaning atrofiga to'planib turganlarning shunday suhbatlari keltiriladi:

- *Tavba qildim, o'ligining o'ziyam daxshatli-ya.*
- *Ayt mang.*
- *Qahr bilan osilib turishini qarang, xuddi hozir tushib keladiganday.*
- *Qahrli bo'lsa ham savob ishlarniyam qilgan, birodar. Suv tanqis bo'lgan paytlarda ariq qazdirib, suv chiqardi, qanchadan-qancha dasht-u cho'llar obod bo'ldi.*
- *Ha-ya, saroyini yangilab, madrasa, hammom qurdirdi...*
- *Hey, hey, nimalar deyapsizlar, eslaring joyidami? Shu ketishda bo'lsa, Musulmonqulni farishtaga aylantirib qo'yaqolasizlar shekilli"*[4.3].

Yuqoridagi parchadan Musulmonqulning yomonligi bilan birga xalq uchun qilgan xizmatlari ham tasvirlanadi. Bu esa yozuvchining har bir inson avvalo inson ekanligini, har qanday insonning ichida yaxshi va yomon "men"i borligini his qilgan holda xolis yondasha olganligini, uning mahoratini anglatadi.

"Tanazzul" romanigacha, Xudoyorxon obrazi ham o'ta qo'rqqoq va aqlsiz obraz sifatida gavdalanirilgan. "O'tkan kunlar" asarida Xudoyorxonga nisbatan *"...aqlsiz bir go'dakni (Xudoyorni)..."*[5.19] ta'rifi, yoki Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi Noyib to'ra va Miryoqibning: *"Senlarning xonlaring bilan bizlarning podshohimiz yurtlariga ko'p ham achinmaydilar, shekilli... Senlarning Xudoyorxonga «O'ruslar Oqmachitni olib qo'ydi», deganlar. Xudoyorxon "U yurtim necha kunlik yo'lda?" deb so'ragan, "Bir oylik yo'lda", deganlar. "Unday bo'lsa, menga unaqa olis joydagi yurtning keragi yo'q. Olsa, ola bersin!" degan..."*[7.139] kabi suhbatidan "Tanazzul" romanigacha Xudoyorxonga qanday nisbat berilganini bilishimiz mumkin. Vaholanki, "Tanazzul" romanida xonlik hududlarini ruslar bosib olayotganini eshitib, tunlari xalovati yo'qolib, xonlikni himoya qilish uchun Turkiya va Buyuk Biritaniya bilan qurol-yarog' masalasida hamkorlik qilib, qurol-yarog' olgan, imkoni boricha bu vaziyatning chorasini izlagan vatanparvar xon sifatida ham tasvirlanadi.

MUHOKAMA. "Tanazzul" romanida Mallaxon obrazi ham e'tiborimizni tortadi. Is'hoqxon to'ra Ibratning "Tarixi Farg'ona" asarida Xudoyorxonga oid maxsus bob ajratilgan. Unda keltirilishcha, Mallaxon qipchoqlarni bo'ysundirib, saroyga qaytayotganini eshitib, Xudoyorxon akasiga peshvoz chiqadi va unga Qo'qonni topshirib: "Man oldingizda turay,



Xo'qandni o'zingiz tasarruf qiling!, – deganda, Mallaxon: “Man xon qasdida emasman, mamlakat istehkomi va istiqboli mani(ng) matlabim emas. Ammoki, sani(ng) bu tariqa o'yin-kulgig'a mashg'ul bo'lmoqing bizga va fuqarolarga katta zarardur, ishni bilib va bilganlarni(ng) maslahati ilan ish qilmoqing zarur. Mundog' bo'lsang, bizlar xarob bo'lub, dushmanlarga muhtoj bo'lurmiz, mamlakat qo'ldan ketar, bo'lak podsholarga kulgi bo'larmiz!”[3.18]– deydi. Bu asarda Mallaxon juda tadbirli, ko'pni ko'rgan, uzoqni o'ylab ish ko'radigan, o'z fikriga va dunyoqarashiga ega xonzoda sifatida tasvirlanadi. Go'yoki unga xonlik taxti qiziq emas, tinchgina Toshkent hokimi bo'lishning o'zi yetarliddek. Ammo “Tanazzul” romanidagi Mallaxon obrazi esa tasavvurlarimizni birmuncha o'zgartiradi. Bu asarda biroz qo'rqqoq, o'z fikri bilan emas, atrofidagi beklar yo'rig'iga yuradigan, xom tadbir qilib qo'yadigan xonzoda sifatida tasvirlangan. Romanda qipchoqlar bo'ysundirilib, Mallaxon saroyga qaytganida, Xudoyorxon uni Toshkent viloyatiga hokim etib tayinlaydi. Hokim etib tayinlanganiga ikki oy to'lgach, uning huzuriga o'z mulozimlaridan Niyoz qushbegi va Rayimqul dodxoh keladi. Toshkent viloyatining hududi vodiy yerlaridan ikki-uch baravar ga juda katta ekanini, Toshkentda turib Mallaxonni xon qilib ko'tarishmoqchiligini aytadi. Xonzoda esa bir muddat o'ylanib turib, vahimaga tushib: *“Eslaring joyidami? Nimalar deb valdirayapsanalar? – ko'zlarini ola-kula qilib, – bu gaplar xonning qulog'iga yetib borsa nimalar bo'lishini bilasanlarmi?”*[4.70], –deb dahshatga tushadi. Mallaxonning diliga xon bo'lish istagi tushib, tinchligi yo'qoladi. Atrofidagi beklar va mulozimlarning gapiga kirib, Toshkentni mustaqil deb e'lon qiladi. Xudoyorxon esa bundan tashvishga tushib, boshida akasiga qarshi jang qilishni istamaydi, oxir oqibat chorasizlikdan Toshkentga qo'shin tortadi. Mallaxonga ittifoqdosh bekliklar xondan qo'rqib, xon qo'shiniga qo'shiladi. Xonning onasi Hokimoyim xonzodalar bir-birlariga birodarkush bo'lib qolmasin deb, kuyovi, Xudoyorxonning vaziri Saidbekni qo'shından oldin Mallaxonning oldiga yuborib, xonzodani Buxoro amirligi hududiga qochirib yuboradi. Xon esa Toshkentni jangsiz egallaydi. Yuqoridagi ma'lumotlar Mallaxon obrazining farqli taraflarini ochib beradi.

“Rossiya mustamlakasi va sho'ro davrida ba'zi olim va tadqiqotchilar Qo'qon xonligi tarixi va Xudoyorxon shaxsi haqida o'z davri uchun muhim tanqidiy ma'lumotlarni bayon qilishgan, turli monografiyala chop etishgan. Tanqidiy asarlar xon Xudoyorxon shaxsini emas, u xonlik qilgan davr, ijtimoiy-ma'muriy-siyosiy voqealarning tavsifi va tahliliga bag'ishlangan. Shu bois Xudoyorxonning shaxsi ijtimoiy voqealar jarayonida unchalik ko'zga tashlanaydi”[8.9]. Bundan ma'lim bo'ladiki, Xudoyorxonni tasvirlashda “Tanazzul”gacha bo'lgan asarlarda bir tomonlama mulohaza yuritilgan.

XULOSA. Qiyosiy taqqoslaganimizda bu kabi ma'lumotlarimizga juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Sa'dixon Mavlavixon o'g'li “Tanazzul” romanini biror bir hikoya, qissa va yoki maqola ham yozmasdan birdaniga roman janriga qo'l urganiga e'tibor qaratilsa, bu juda katta hodisa deb baholashimiz mumkin. Yozuvchining mahorati shundaki, qahramonlarni qaysidir ijobiy yoki salbiy xususiyati orqali ideallashtirmasdan, ikkala tomanini ham ko'rsata olgan. Bu esa qahramonlarning yanada ishonarli va tabiiy chiqishini ta'minlagan.

References:

1. Yo'ldoshev Q. Badiiyatdan nurlangan tarix/“Tanazzul” asariga yozilgan so'zboshi.– Toshkent:, O'qituvchi. 2020. –B.3.



2. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent:, Innovatsiya-ziyo. 2021. – B.70.
3. Is’hoqxon to’ra Ibrat. “Tarixi Farg’ona”. –Toshkent:, Manaviyat. 2005. –B.18.
4. Sa’dixon Mavlavixon o’g’li. “Tanazzul”. 3-kitob. –Toshkent:, O’qituvchi. 2020. –B.3.
5. Abdulla Qodiriy. “O’tkan kunlar”. –Toshkent:, Yangi asr avlodi. 2018. –B.19.
6. Sa’dixon Mavlavixon o’g’li. “Tanazzul”. 1-kitob. –Toshkent:, O’qituvchi, 2019. –B.12
7. Cho’lpon. “Kecha va Kunduz”. –Toshkent:, Sharq, 2000. –B.139.
8. Shohruxbek Umarov. Xudoyorxon avlodlari tarixi. –Toshkent:, Adabiyot sarchasmasi, 2016. –B.9.